



**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI  
TAYYORLASHDA VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING NAZARIY-METODIK  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Kadrekova Almaz Kudyarovna*

*Nukus Davlat Pedagogika Instituti "Boshlang'ich ta'lim"*

*kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

**Таянч сўзлар:** бошланғич таълим, тизим, реформа, таълим соҳаси, экономика, виртуал таълим технологиялари, назарий-методик асослар, такомиллаштириш.

**Ключевые слова:** начальное образование, система, реформа, сфера образования, экономика, виртуальные образовательные технологии, теоретико-методологические основы, совершенствование.

**Key words:** primary education, system, reform, education sector, economics, virtual educational technologies, theoretical and methodological foundations, improvement.

**РЕЗЮМЕ:** Ушбу мақолада бўлажак бошланғич таълим ўқитувчиларини таярлашда виртуал таълим технологияларидан фойдаланишнинг назарий-методик асосларини такомиллаштириш ма-салалари ўрганилган.



**РЕЗЮМЕ:** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования теоретических и методологических основ использования виртуальных образовательных технологий в подготовке будущих учителей начальной школы.

**SUMMARY:** This article examines the improvement of the theoretical and methodological foundations for the use of virtual educational technologies in the training of future primary school teachers.

Hozirgi oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu ta'lim tizimi sifatini oshirish, o'quv yurtlarining o'zini o'zi ta'minlash, moliyalashtirish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, ta'limda xizmat ko'rsatish ko'rsatishni samarali yo'lga qo'yish, o'quv-tarbiya va ta'limni boshqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etishdan iborat. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy asoslarini yaratish, bu borada jahon tajribalarini o'rganish, ularni mahalliyashtirish sharoitidan kelib chiqqan holda tizimlashtirish va umumlashtirish kabi masalalarga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun" raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Shart deganidek, - bu bizga taraqqiyotning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Chunki, bugungi kunda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish zarur infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab qilishini yaxshi bilamiz. Shuningdek, "O'zbekiston Respublika oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha



rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish belgilangan.

Raqamli o'qitishning ta'lim samaradorligiga ta'siri, uning imkoniyatlari manbalarda berilgan nazariy ma'lumotlar va amaliy tajribalarni optimallashtirgan holda asoslash va ayrim raqamli usullarni ommalashtirishdan iborat.

Dunyoning hozirgi rivojlanish bosqichi ilmiy axborot hajmining barqarorligi o'sib borishi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya to'g'risida"gi texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorlari, tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash, ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia tizimida resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi[1].

Ta'lim muassasasining elektron axborot ta'lim muhitini yaratish sof texnik masala bo'lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli munosabat asosida ishga tushirish talab etiladi. [2]

Barcha talabalar ta'limni raqamlashtirish ularning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita ta'sir etadi, deb hisoblaydi. Ularga ko'ra, raqamlashtirilgan muhitda metodik fanlarni o'rganishning afzalliklari turli elektron xizmatlar va resurslardan foydalanish, jarayonlarning shaffofligi va o'quv jarayonida shaxsiylashtirilgan ma'lumotlarning



to'planishini o'z ichiga oladi. Kamchiliklar sifatida respondentlar axborotni tekshirish zarurligi, o'qituvchilar va tengdoshlar bilan jonli muloqot kamaygani, resurslar sifati pasaygani, o'ziga xoslik va odob-axloq mezonlariga javob berish zarurligi ta'kidlandi.

Bugungi XXI-asr axborot texnologiyalari asrida zamonaviy bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan o'qituvchiga bo'lgan talabning yuqoriligi hech birimizga sir emas. Darhaqiqat, axborot asri bolalarining virtual olami va internet tarmoqlari bilan kundalik turmushdagi uyg'unligi endi ularda an'anaviy darslar va ta'lim olishga bo'lgan qiziqishining keskin pasayishiga olib kelmoqda.

Bunday sharoit bo'lajak o'qituvchidan ta'lim jarayonida virtual texnologiyalardan foydalana olish, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish. talab qilmoqda.

Kundalik hayotimizga kirib kelayotgan Virtual ta'lim, Virtual muzey, Virtual ko'zoynak, Virtual auditoriya nomlarining bugungi kunda ko'payib borayotganligi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati tobora ortib borayotganligi e'tiborimizni tortmoqda. Virtual texnologiyalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish esa zamonaviy ta'lim standartlaridan biriga aylanmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligi mazmunini takomillashtirishning metodik tamoyillarini tariflashda;

-tayyorgarlikning progressiv tavsifi o'rganilganda;

-aks ettiruvchi faoliyat usullarini o'rganish imkoniyatlari ochib berilganda;



-tayyorgarlikning modulliligi;

-tayyorgarlik o'zgarasligi tayyorgarlikning amaliyotga yo'naltirilganligi isbotlanganda. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda zamonaviy shakllari, ularning pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash, ya'ni masofaviy va aralash ta'lim shakllarida ta'lim sifatini ta'minlashda interfaol vositalar asosida ta'lim samaradorligini oshirishga tegishli tizimli yondashuvlar va shu asosda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligida virtual ta'lim vositalaridan foydalanishda imkoniyat yaratiladi.

Tadqiqotimizda virtual texnologiyalar yordamida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonini individuallashtirish, interfaol vositalar asosida ta'lim samaradorligini oshirishga oid tizimli yondashuvlarga asoslanamiz. Bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari turli onlayn platformalarda dadil harakatlanadi, ma'lumotlarni tez izlaydi, sun'iy intellektdan uy topshiriqlarini bajarishda foydalanadi va messenjerlar orqali bog'lanadi. Ammo ularda o'qishga qiziqish yo'q, kattalar va tengdoshlari bilan shaxsiy munosabatda qiyinchiliklarga duch keladi, hissiyotlarni tartibga solishda va hamkorlikda qiyinchiliklarga duch keladi. Boshqacha aytganda, virtual muloqot o'quvchilar uchun ko'pincha yuzma-yuz muloqotga qaraganda osonroq va qiziqarliroq bo'ladi.

Albatta, o'qituvchilar ham o'quvchilari kabi raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ular raqamli madaniyatning kengroq doirasida raqamli



vositalardan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari XXI asrning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berish uchun o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otish, tegishli ta'lim mazmunini tanlash, tegishli pedagogik va raqamli o'qitish texnologiyalarini tanlay olishi kerak.

Tadqiqot maqsadida virtual texnologiyalar yordamida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonini individuallashtirish, interfaol vositalar asosida ta'lim samaradorligini oshirishga oid tizimli yondashuvlarni ishlab chiqib iborat. Shu asosda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligida virtual ta'lim vositalaridan foydalanishning takomillashtirilgan modeli va metodikasini taqdim etishdan iborat.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik cikl fanlari bo'yicha tayyorlash muammolari quyidagilar bilan bog'liq. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga chuqur kirib borib bormoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida virtual ta'lim texnologiyalarining o'rnini keskin ortdi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ushbu vositalardan samarali foydalanish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Shuning uchun virtual ta'lim texnologiyalarining nazariy-metodik asoslarini chuqur ilmiy o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**



1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. "Masofaviy wqitish nazariyasi va amaliyoti." Monografiya. - T.: Fan. 2009. - 146 b.
2. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. "Tálim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi." Monografiya. Guliston: "Universitet," 2019. - 232 b.
3. Ergasheva X.M. Tálimda raqamli texnologiyalar - o'quv qo'llanma. 2023-jil.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limjarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagipedagogika fanlari doktori ilmiy darajasiniolish uchun yozilgan dissertatsiya. -Toshkent. 2007.
5. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'limmuassalari pedagog-o'kituvchilari uchun amaliytavsiyalar".
6. Qodirova F.U. "Raqamli pedagogika" – istiqbol bugundan boshlanadi: imkoniyatlar, stereotiplar, kelgusi rejalar". ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOYE OBRAZOVANIYE 2020, 8 (93).
7. Nosirova D.S. "Raqamli texnologiyalarvositasida o'quv jarayonini tashkil etishningmuammolari va istiqbollari" MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.
8. O'zbekiston Respublikasi PrezidentiShavkat Mirziyoyevning Birlashgan MillatlarTashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutki 23.09.2020
9. Fan, texnika va ta'limdainfokommunikatsion va xisoblash texnologiyalari: monografiya xalkaro konferensiya ma'ruzalari va tezislari.